

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

"Toshkent dövlati fan-tarbiyoti universiteti"

TA'LIMIY-YAN VAKAMASIYA KIRITILGAN

Uzbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil "25" uchun 100% -sini hujroq bilan

JORIN VAJERGAN

(Uzbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi)

60310200 - Xalqaro munosabatlar bakalavriat ta'lif yo'naliishing

MALAKA TALABI

Muzkin malaka talabi "Oliy ta'lim davrida tizimiy shart - Aksariy qoidalari", "Oliy ta'limning o'ziga qo'shilishiga munuslashlikka mansub". O'zbekiston Respublikasi Nafis va temir malaka dozdari (urizoti), kuchli qiziqarli va hadarli qiziqarli takiflariga muvofiq ishlash chiqligi va nomiy mukayyebishi, bu uchun tashabbusi.

Toshkent dövlati fan-tarbiyoti universiteti nomi cheqishish
buqtin O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligida

Toshkent - 2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil «25» 06 dagi 218 - sonli buyrug'i bilan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

1. Kursiy muddati chiqilgan ta'lim standartlari
- 2.1. Kursiy muddati chiqilgan standartlari
- 2.2. Kursiy muddati chiqilgan standartlari
3. Kursiy muddati chiqilgan standartlari
4. Funksiya kiritilgani chiqilgan standartlari

Bildirgi filiali haqida

Nashriy qiziqarli, tashqarisiga qarab, o'sishiga qarab, o'sishda qiziqarli, tashqarisiga qarab, o'sishda

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'naliislari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r

bet

1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanishi	4
1.1.2.	Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatning sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarning obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarning turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalar.....	5
2.	Kasbiy kompetentlarga qo'yiladigan talablar.....	6
3.	Amaliyotga qo'yiladigan talablar.....	7
4.	Fanlar katalogining tuzilishi.....	7
	Bibliografik ma'lumotlar.....	11
	Kelishuv varag'i.....	12

1. Umumiy tavsifi

60310200 - Xalqaro munosabatlar ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrilar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talablari **60310200 - Xalqaro munosabatlar** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrilar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasaining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abiturientlar, ularning otononalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari:

Xalqaro munosabatlar sohasini rivojlantirish, tashqi siyosat istiqbolini belgilash, kasbiy ko'nikma, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vosita, usul, metod va uslublarining majmuasini hamda siyosiy bilimlar tizimi bilan bevosita aloqador bo'lgan xalqaro munosabatlar tarixi va nazariyasi, diplomatiya asoslari, O'zbekiston va xorijiy davlatlarning xalqaro munosabatlari, xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiyalar, davlat boshqaruv organlari va xalqaro munosabatlarning boshqa aktorlari bilan bog'liq bo'lgan nazariy va amaliy faoliyatni o'zida qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari:

Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi ilmiy tadqiqot muassasalari va tashkilotlar; vazirliklar, davlat qo'mitalari, siyosiy partiyalar, hokimliklar va boshqa davlat idoralari, muassasalarning xalqaro boshqarma va bo'limlari, mamlakat va xalqaro faoliyat bilan bog'liq bo'lgan nodavlat va davlat tizimlarida xalqaroshunos-siyosatchi.

60310200 - Xalqaro munosabatlar bakalavriat ta'lim yo'naliishi bo'yicha bitiruvchilar O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Diplomatik servis xizmati, Jahon axborot agentligi va Diplomatik kurslar; O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalari, xorijiy davlatlarning O'zbekiston Respublikasidagi diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalari; vazirliklar, davlat qo'mitalari, siyosiy partiylar, hokimliklar va boshqa davlat idoralari, muassasalarining xalqaro boshqarma va bo'limlarida xalqaro munosabatlar, tashqi siyosiy faoliyatga oid kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *ma'naviy va ma'rifiy;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *loyihalarni boshqarish;*
- *ekspert-tahliliy;*
- *konsalting xizmati;*
- *tarjimonlik va shu kabilarni o'z ichiga oladi.*

1.2.4. Kasbiy vazifalar.

60310200 - Xalqaro munosabatlar ta'lim yo'naliishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

siyosiy fanlarga oid turli tadqiqotlarni amalga oshirish, ular bilan bog'liq amaliyotlarni o'tkazish, ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish hamda jahon siyosatiga oid adabiyotlarni ekspertiza qilish tartib-qoidalarini ishlab chiqishda qatnashish;

maxsus adabiyotlar va siyosatshunoslikka oid boshqa ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;

ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, siyosatshunoslikka oid adabiyotlar ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;

tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etishda qatnashish;

amaliy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va kommunikatsion vositalaridan foydalanish.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:

ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtira olish, uni tashkillashtirish usullarini egallah, o'quvchilar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish;

o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilish;

globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda yozma ma'naviy merosning o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

mahallalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha individual suhbat o'tkazish;

milliy urf-odat va marosimlarni o'tkazishda umuminsoniy qadriyatlar, mehrmuruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ochib berish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

siyosat fanlariga oid turli tadbir, anjuman va ma'rifiy suhbatlarni tashkillashtirish va boshqarish;

ARMda axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar monitoringi hamda sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtiroy etish;

axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

fikrlar har xil bo'lgan sharoitda to'g'ri qaror qabul qilish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash.

Loyihalarni boshqarish faoliyatida:

turli tadbir va tashabbuslarni rejallashtirish va ijro qilishda loyihaviy yondashuvni amalga oshirish.

Ekspert-tahliliy faoliyatida:

tahliliy va ilmiy tadqiqot ishlarini tizimli yondashuv asosida olib borish va kompyuterli modellashtirish, eksperimental usulblardan foydalanish.

Konsalting xizmati faoliyatida:

yo'nalishiga mos mavzulardagi loyihalar, manbalar, adabiyotlar, elektron video va audio mahsulotlarni ekspertiza qilish;

ixtisoslikka mos sohalar bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish.

Tarjimonlik faoliyatida:

davlat tashkilotlari va davlatga qarashli bo'limgan xususiy tashkilotlarda chet tillardan tarjimonlik qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot - umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalami shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lif yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. Tanishuv amaliyoti;
2. Malakaviy amaliyot;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

1. Fanlar katalogining tuzlishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklanamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	4800	160	
1.01.	O'YT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02.	DIN1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.03.	FAI1304	Falsafa	120	4	3
1.04.	O'RT1204	O'zbek (rus) tili	120	4	2
1.05.	JMS1104	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	1
1.06.	XT11-208	Xorijiy til	240	8	1,2
1.07.	SK11-208	Siyosatshunoslikka kirish	240	8	1,2
1.08.	JS13-408	Jahon siyosati	240	8	3,4
1.09.	GS13-408	Geosiyosat	240	8	3,4
1.10.	XMT11-208	Xalqaro munosabatlar tarixi	240	8	1,2
1.11.	XMN1306	Xalqaro munosabatlar nazariyasi	180	6	3
1.12.	SKF1704	Siyosiy konfliktologiya	120	4	7
1.13.	ST1804	Siyosiy tahlil	120	4	8
1.14.	XH1308	Xalqaro huquq	240	8	3,4
1.15.	TSF1604	Tashqi siyosiy faoliyat	120	4	6
1.16.	DA1104	Diplomatiya asoslari	120	4	1
1.17.	DXPE15-608	Diplomatik xizmat, protokol va etiket	240	8	5,6

Xalqaro munosabatlar bo'yicha majburiy fanlar

1.18.	O'TSH1106	O'zbekiston tashqi siyosatining huquqiy asoslari	180	6	1
1.19.	XALM1204	Xalqaro mintaqashunoslik	120	4	2
1.20.	DIPM13-410	Diplomatik muzokaralar	300	10	3,4
1.21.	XVMX15-610	Xalqaro va mintaqaviy xavfsizlik	300	10	5,6
1.22.	XAVA1506	Xavfsizlik asoslari	180	6	5
1.23.	IAJI1504	Iqtisodiyot asoslari va jahon iqtisodiyoti	120	4	5
1.24.	OMMD1504	Ommaviy diplomatiya	120	4	5
1.25.	RDST1704	Rivojlangan davlatlar siyosiy tizimlar jarayonlari	120	4	7
1.26.	XALT1706	Xalqaro tashkilotlar	180	6	7
1.27.	BAHM1704	Bahsli hududlar muammolari	120	4	7
1.28.	QIYS1804	Qiyosiy siyosatshunoslik	120	4	8

Xalqaro munosabatlar bo'yicha majburiy fanlar (sharq tillari bilan)

1.18.	XShT11-864	Xorijiy sharq tili	1860	62	1-8
		Tanlov fanlar	1500	50	3-8
		<i>Tanlov fanlar</i>	1500	50	3-8
		Kvalifikatsiya			Xalqaro munosabatlar mutaxassisi
		Jami	6300	210	
		Malakaviy amaliyot	900	30	2,4,6,8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi			
		Jami	900	30	
		Hammasi	7200	240	

*OTM o'quv jarayonlarini tashkil etish hususiyatidan kelib chiqib, semestrlar uchun belgilangan umumiy kredit miqdorini muvofiqlashtirilgan holda fanlar o'tiladigan semestrlarni o'zgartirish mumkin.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002-651.1/7


Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, ta'lif yo'naliishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va dasturlari, profil, o'qib-o'rghanish natijalari, o'quv sikli, jahon siyosati, davlat va jamiyatlar rivojiga doir ijtimoiy-siyosiy qarashlar, taraqqiyotning o'ziga xos modellari, "siyosat" kategoriyasi, siyosiy hokimiyat, siyosiy ong va mafkuralar, siyosiy tizimlar, siyosiy jarayonlar, demokratiya nazariyasi, siyosiy institutlar, siyosiy partiyalar; ko'ppartiyaviylik, ijtimoiy guruhlar, siyosiy madaniyat, siyosiy rivojlanish, modernizatsiya, xalqaro siyosat, siyosiy bashorat, siyosiy tahlil, siyosiy jarayonlarni tarixiy rakursda o'rghanish, umumbashariy muammolar, siyosiy mojarolar va mojaroshunoslik, transchegaraviy jarayonlar, yangi jahon tartiboti, demografik va migratsion jarayonlar, geosiyosat.

ISHLAB CHIQILGAN:
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Rektor  G.Sh.Rixsiyeva

2024-yil " " _____

M.O.



O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'lifni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor  M.Boltabayev

2024-yil " " _____

M.O.

Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti

Rektor  I.Madjidov

2024-yil " " _____

M.O.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Davlat boshqaruvi
akademiyasi

Prorektor  A.Umarov

2024-yil " " _____

M.O.



O'zbekiston
xalqaro islom akademiyasi

Rektor  U.G'afurov

2024-yil " " _____

M.O.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

**60310200-Xalqaro munosabatlar ta'lim yo'nalihi bo'yicha malaka talablari va o'quv
rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar
iste'molchilari o'rtasida**

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ ” 2024-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi prorektori A.Umarov, O'zbekiston Milliy universiteti rektori I.Madjidov, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori G.Rixsiyeva birgalikda TDSHUsa ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalihsining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60310200-Xalqaro munosabatlar ta'lim yo'nalihi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5847-ton farmoni, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-ton, 2017-yil 27-iyuldagagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-ton, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-ton qarori, 2020-yil 16-apreldagi "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4680-ton qarori, O'zR OTFIVning 2023-yil 9-iyundagi "Oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi 259-tonli hamda O'zR OTFIVning 2024-yil 20-maydagi "O'z DSt 3557:2021 "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalichlari va mutaxassisliklari klassifikatori" O'zbekiston Respublikasining Davlat standartiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 168-tonli buyruqlari, shuningdek, oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalihi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi prorektori

A.Umarov

O'zbekiston milliy universiteti
rektori

I.Madjidov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
rektori

G.Rixsiyeva

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida ishlab chiqilgan 60310200-Xalqaro munosabatlar ta'lim yo'naliishi bo'yicha oliy ma'lumotli magistrler tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o'quv rejasiga

TA Q R I Z

"Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini ijro etish, ta'lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqr iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta'lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg'or jahon darajasiga muvofiqligini ta'minlash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog'liq.

60310200-Xalqaro munosabatlar ta'lim yo'naliishing malaka talablari va o'quv rejasি O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli, O'zR OTFIVning 2023-yil 9-iyundagi "Oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi 259-sonli hamda O'zR OTFIVning 2024-yil 20-maydagi "O'z DSt 3557:2021 "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori" O'zbekiston Respublikasining Davlat standartiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 168-sonli buyruqlari, oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga hamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Ta'lim yo'naliishi o'quv rejasи kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirishi, amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda hamda kelgusida ilmiy-pedagogik faoliyat olib borishlari uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

60310200-Xalqaro munosabatlar ta'lim yo'naliishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasи xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilarda chuqr bilim, mustaqil fikrash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, magistrarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish

kabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan va texnika oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingen ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rinn berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashuv sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt budgetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalarining talab va takliflari inobatga olingen.

Xulosa qilib aytganda, 60310200-Xalqaro munosabatlar ta'lim yo'naliishi bo'yicha bakalavrler tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
dotsenti, siyosiy fanlar nomzodi**

A.A.Sharapov



Kasbiy kompetensiyalar uchun yillardigan talabkor, muyniq, talabkor majburiy va tushunchalarini o'rganishni, o'qiyotlarni o'tkazish va aktivida kasbiy faoliyatda zarur birem. Ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda himola kelgusida himoy-pedagogik fandym olib berishlari uchun xarha bo'lgan bitta va ko'nikmalariga ega bo'lgan talabkorlarga olib berish uchun shart qilingan.

60310200-Xalqaro munosabatlar ta'lim yo'naliishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talabkorlari o'quv rejasi xora qaytdan amaliy nayq'untashdirilgan, ta'lim o'qishlari chuxur bilm, mustaqil fikrlesa, yokiq kuch-kor malakasi almasibligi ta'minlanga alohida olib qaratilgan magistrering fanlari o'qishlari haqvoda e'ritsa, ko'nikmalar hambada tasevurga ega bo'lish, qo'yilgan estebon oshishlarni shaxsiy sahnada tizishlari olib

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida ishlab chiqilgan 60310200-Xalqaro munosabatlar ta'lim yo'naliishi bo'yicha oliy ma'lumotli magistrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o'quv rejasiga

TA Q R I Z

"Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini ijro etish, ta'lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta'lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg'or jahon darajasiga muvofiqligini ta'minlash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog'liq.

60310200-Xalqaro munosabatlar ta'lim yo'naliishing malaka talablari va o'quv rejasি O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli, O'zR OTFIVning 2023-yil 9-iyundagi "Oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi 259-sonli hamda O'zR OTFIVning 2024-yil 20-maydagи "O'z DSt 3557:2021 "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'naliislari va mutaxassisliklari klassifikatori" O'zbekiston Respublikasining Davlat standartiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 168-sonli buyruqlari, oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga hamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Ta'lim yo'naliishi o'quv rejasи kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirishi, amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda hamda kelgusida ilmiy-pedagogik faoliyat olib borishlari uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

60310200-Xalqaro munosabatlar ta'lim yo'naliishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasи xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, magistrarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish

kabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan va texnika oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobjiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashhg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rinn berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashuv sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt budgetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalarining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60310200-Xalqaro munosabatlar ta'lim yo'naliishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**TDSHU "Koreya tarixi, madaniyati, siyosati
va iqtisodiyoti" kafedrasi dotsenti, s.f.d.**

S.F.Ubaydullayeva

